

TOSHPO‘LAT AHMAD SHE‘RIYATIDAGI SUBYEKTIV MUNOSABAT IFODALOVCHI QO‘SHIMCHALAR TAHLILI

Buxoro davlat universitet

4-bosqich talabasi

Rajabova Dilnoza

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada To‘shopo‘lat Ahmad she‘riyatida subyektiv munosabatni ifodalovchi qo‘shimchalarning qo‘llanishi tahlil qilinadi. Shoirning badiiy matnlarida subyektiv ma‘no yuklovchi birliklarning obraz yaratish, hissiy munosabatni kuchaytirish va nutqning ekspressivligini oshirishdagi vazifasi yoritiladi. Tadqiqot davomida shoirning turli she‘rlari lingvopoetik nuqtai nazardan ko‘rib chiqilib, qo‘shimchalarning semantik imkoniyatlari, ularning kontekstga ko‘ra yuzaga keladigan ma‘no ottenkalari va individual uslub yaratishdagi o‘rni asoslab beriladi. Maqola natijalari To‘shopo‘lat Ahmad poetikasining til xususiyatlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Toshpo‘lat Ahmad, lingvopoetika, subyektiv munosabat, ma‘no, individual uslub.

Abstract. This article analyzes the use of suffixes expressing subjective attitudes in the poetry of Toshpolat Ahmad. The role of units that carry subjective meaning in the poet's literary texts in creating an image, enhancing emotional attitudes, and increasing the expressiveness of speech is highlighted. During the study, various poems of the poet are considered from a linguopoetic point of view, and the semantic possibilities of suffixes, their shades of meaning that arise depending on the context, and their role in creating an individual style are substantiated. The results of the article serve to provide a deeper understanding of the linguistic features of Toshpolat Ahmad's poetics.

Keywords: Toshpolat Ahmad, linguopoetics, subjective attitude, meaning, individual style.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируется использование суффиксов, выражающих субъективные установки, в поэзии Тошполата Ахмада.

Подчеркивается роль единиц, несущих субъективную смысловую нагрузку в художественных текстах поэта, в создании образа, усилении эмоционального настроения и повышении выразительности речи. В ходе исследования рассматриваются различные стихотворения поэта с лингвопоэтической точки зрения, обосновываются семантические возможности суффиксов, их оттенки значений, возникающие в зависимости от контекста, и их роль в создании индивидуального стиля. Результаты статьи способствуют более глубокому пониманию языковых особенностей поэтики Тошполата Ахмада.

Ключевые слова: Тошполат Ахмад, лингвопоэтика, субъективное отношение, значение, индивидуальный стиль.

Kirish. Shoir, yozuvchi, hikoyanavis, tarjimon Toshpo‘lat Ahmad asarlari rus, tojik, turkman, venger, ispan, turk, qozoq tillariga tarjima etilgan. Unga o‘zbek adabiyoti va madaniyatini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi» unvoni berilgan. 1998- yilda «Mehnat shuhrati» ordeniga sazovor bo‘ldi. 1942 yil dekabrda Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi Denov qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tugatgach, 1959-1964 yillari Samarqand Davlat universitetida tahsil olgan. 1965 yildan «Buxoro haqiqati» viloyat gazetasiga ishga o‘tadi. 1993-1996 yillarda shu gazetaning bosh muharriri bo‘lib ishlaydi. 1975 yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo‘limi mas’ul kotibligiga tayinlanadi. U bo‘limni surunkasiga 18 yil boshqarib, ko‘plab ijodkor yoshlarni adabiyotga olib kirdi. Bu yillarda uning «Buxoro yulduzi» nomli hujjatli qissasi, «Qasam va qasos», «O‘g‘lingman, hayot!», «Qalbning oppoq gavhari» kabi ocherklar, «Ochiq eshik» nomli hikoyalar, «Minorlar va chinorlar», «Oydin xayollar», «Tabassum bog‘i», «Imon qal’asi» singari she’riy kitoblari nashr etildi.

Toshpo‘lat Ahmad mohir tarjimon hamdir. Tojikiston xalq yozuvchisi Jalol Ikromiyning «Qora quzg‘unlar» romani uning tarjimasida o‘zbek kitobxonni qo‘liga borib yetgan. Shuningdek, Rasul Hamzatov, Vladimir Solouxin, Avetik Isaakyan, Ovanes Sherov, Loyiq Sherali, Ahmad Muxtor singari qardosh shoirlarning asarlarini ham tarjima qilib, o‘quvchilar ma’naviy mulkiga aylantirgan.

Oxirgi yillarda «Buxoro haqiqati» (hozirgi «Buxoronoma») viloyat gazetasi bosh muharriri bo'lib ishladi. Keyingi 6 yil ichida shoirning Buxoroning 2500 yilligiga bag'ishlangan «Sharq tumori», «Fig'on», «Ahli muslim mehrobi», «Buxoronoma» (saylanma), «Chorbakr», «Gavhari jonim», «202 atirgul» nomli she'riy kitoblari chop etildi va «Fig'on» p'yesasi sahna yuzini ko'rdi. Toshpo'lat Ahmadga o'zbek adabiyoti va madaniyatini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» unvoni berilgan. 1998 yilda «Mehnat shuhrati» ordeniga sazovor bo'ldi.

Uning asarlari rus, tojik, turkman, venger, ispan, turk, qozoq tillariga tarjima etilgan. Biz ham ushbu kichik tadqiqotimiz davomida To'shopo'lat Ahmad she'riyatida subyektiv munosabat ifodalovchi qo'shimchalarni tahlilga tortamiz.

Asosiy qism. Bugungi kunga kelib dunyo tilshunosligida tilni nazariy jihatdan o'rganishdan ko'ra undan foydalanuvchi shaxsning tildan foydalanish qobiliyati - nutqi, yoshi, kasb-kori, jinsi kabilar bilan bog'liq holda o'rganishga e'tibor kuchaymoqda. Buning natijasida esa antroposentrik tilshunoslik bir necha yangi yo'nalishlar bilan boyidi. Masalan, psixolingvistika, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, etnolingvistika, matn tilshunosligi, kompyuter lingvistikasi, sotsiolingvistika kabi. Bularga qo'shimcha tarzda lingvopoetika ham yangi yo'nalish sifatida o'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab rivojlana boshladi va tez fursatda yangi bilimlar bilan boyidi. Lingvopoetika bugun paydo bo'lgan fan emas, bu soha qadimdan ijtimoiy fanlar negizida shakllanib borgan va keyinchalik lingvistika va poetika fanlari oralig'ida yuzaga kelgan. A.Nurmonov esa lingvopoetikaga shunday izoh beradi: "Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshqalar) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni o'rganuvchi bo'limidir." Bu yo'nalish badiiy asar tilini, unda qo'llanilgan til birliklarining qanday maqsadda qo'llanilganini va tilning konnotativ hamda estetik ta'sir etish funksiyalarini tahlilga tortadi.

Quyida Toshpo'lat Ahmadning she'rlaridan biri "Usta shirin monologi" she'rida –xon subyektiv mano ifodalovchi qo'shimchani podshoh nomiga qo'shilganligi bois salbiy ma'nosi ifodalaganligini ko'rishimiz mumkin:

Menga ayon edi bir sir va lekin,

G'amimday ko'ksimda tutardim pinhon.

Mumkin bo'lsa edi **Olimxon** mulkin,

Sangtarosh tig' bilan etardim yakson.

Yuqoridagi she'rdan farqli o'laroq "Baxtimizning bog'bonisiz" she'rida shaxs nomiga qo'shilganda –xon qo'shimchasi hurmat ma'nosini ifodalab kelmoqda:

Vatanimiz hur chamankim, shod qadam tashlang,

Farzandlarga posbon bo'lib, chinorday yashnang,

Bobojonsiz, buvijonsiz malhami jonsiz,

Oydaj bo'lib, soydan to'lib, yuz yillar yashang.

Baxtimizning bog'bonisiz, jon **otaxonlar**,

Umrimizning sarbonisiz, jon **onaxonlar**.

Toshpo'lat Ahmadning "Nodira qabri qoshida" she'rida ham salbiy bo'yoqni tanada kuchaytirib kelmoqda:

Nasrulloxon agarchi shoh, bir zor edi,

Kuzg'un edi, xayollari nosog' edi.

Fitnakashlar qarmog'iga chuv ilingan,

Xudo urg'an, Qur'on urg'an to'mtoğ edi.

Quyidagi to'rtlikda ham subyektiv ma'no ifodalovchi –jon qo'shimchasi kishi ismiga qo'shib alohida olinib, hurmat ma'nosini kuchaytirgan:

Yo‘l boshlovchi **Abdullajon** Orif edi,
Dala-qirda bizga chiqdi non-tuz peshvoz.
Qalbimizga bir e’tirof, g‘urur to‘ldi,
Shu boisdan ko‘rganlarim etdim ovoz.
Bundan mamnun **Abdulazizxon**,
Do‘st etibdi har ikki Shayxni.
Murid tushib ularga, shodon
Boshqaribdi bebaqo taxtni.

“Mahmud Taroiyning opasiga” hamda quyida berilgan ikki she’rda esa subyektiv ma’no ifodalovchi –oy hamda –jon qo’shimchalari erkalash va hurmat ma’nosini ifodalab kelmoqda:

Guloyimmi, Gulasalmi, Gulbarchinmiding,
Munavvarmi, Mohiruyimi, Mohparchamiding.
Kim bo‘lsang ham bir kondoshim chin lochin eding,
Buxoroning ona qizi aziz **singiljon**.
Bolajonim, niyatlaring bisyor edi,
Shoir bo‘lmoq yuragingda shior edi.
Bedardlarni sevm asliging oshkor edi,
Xazon bo‘lgan nanbahorim, naxr im mening.
Akajonim, jonim akam, ko‘zingni och,
Yuragingga to‘ldirmay g‘am, ko‘zingni och.
Bu hayotning o‘zi sitam, ko‘zingni och,

Agar o'lsang, ne kechadi holim mening?

Xulosa qilib aytganda Toshpo'lat Ahmad she'riyatini turlicha lingvistik tahlil qilish mumkin. Maqolada ko'rib chiqqanimizdek, she'rlarida subyektiv ma'no ifodalovchi qo'shimchalarni otlarga qo'shilganda qanday ma'no ifodalashini tahlil qildik. Zero, yuqorida tahlilga tortgan birliklarimiz shoir she'rlariga o'zgacha ruh, xalqchillik, didaktik mohiyat olib kirgan desak adashmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Badiiy matnning lisoniy maqomi" M. Yo'ldoshev, Toshkent -2008.
2. "Lingvokulturologiya til va madaniyat fani sifatida rivojlanishi va uning tahlillari".B. Normurodov, TerDU talabasi.
3. "Sharq gavhari". T. Ahmad, Toshkent – 2007.
4. www.ziyonet.uz
5. www.arboblal.uz